

# "O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMYIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## ERKIN VOHIDOVNING IJODIY TAKOMILIDA FUZULIYNING O'RNI

**Ergash Ochilov,**

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti  
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi,  
E-mail: [e-ochilov@mail.ru](mailto:e-ochilov@mail.ru).  
Tel: +998946204764*

**REZYUME.** *Maqolada Fuzuliy merosining Erkin Vohidov ijodiga ta'siri xalaf shoirning salaf shoirga bag'ishlangan she'rlari, uning g'azallariga tatabbu va muxammaslari, ta'sirida ijod qilgan bandu misralari tahlili orqali ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Fuzuliy, Erkin Vohidov, adabiy ta'sir, o'ziga xoslik, mahorat, g'azal, tatabbu, muxammas.*

**РЕЗЮМЕ.** *В статье раскрывается влияние наследия Физули на творчество Эркина Вахидова посредством анализа стихотворений поэта, посвященных поэту-предшественнику, подражание и тахмисов в его газелей, а также строфы и строки, созданных под его влиянием.*

**Ключевые слова:** *Физули, Эркин Вахидов, литературное влияние, своеобразие, мастерство, газел, татаббу, мухаммас.*

**RESUME.** *The article reveals the influence of Fuzuli's heritage on Erkin Vahidov's work through the analysis of the poet's poems dedicated to the predecessor poet, his ghazals, and the bandu verses created under his influence.*

**Key words:** *Fuzuli, Erkin Vahidov, literary influence, originality, skill, ghazal, tatabbu, mukhamas.*

Fuzuliy asarlari vatan adabiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Chunki XVII asrdan keyingi o'zbek so'z san'atini Fuzuliy ta'siridan ayri tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Mashhur ozar shoiri asarlari xalqimiz orasida shunchalik keng tarqalgan, qalam ahliga shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatganki, Fuzuliy baytlarini yod bilmaydigan o'zbek, undan ilhomlanib she'r yozmagan ijodkor yo'q edi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Yurtimizda fuzuliyxonlik kechalari mashhur bo'lib, ularda shoir g'azallari, qit'alari, "Layli va Majnun" dostoni sevib o'qilgan. Devoni maktab va madrasalarning o'quv dasturiga kiritilib, bolalarning nutqini o'stirish va zehnini charxlash uchun qo'shimcha darsliklar qatorida o'qitilgan. Shoir qalamiga mansub ko'plab g'azal, murabba, muxammaslar qo'shiqqa aylanib, shashmaqom tarkibiga kirgan, hofizu xonandalar repertuaridan mustahkam o'rin olgan. O'zbekning biror to'y-tantani yo'qki, Fuzuliy she'rlari bilan aytiladigan ashulalar yangramasa! Shoir qo'shiqlari O'zbekiston radiosi va televideniyesi orqali ham har kuni taralib turadi. Binobarin, milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimiz, adabiyotimiz. san'atimizda Fuzuliyning o'ziga xos o'ri bor.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

O‘zbek mumtoz she‘riyatida Fuzuliydan ta‘sir lanmagan, unga u yoki bu darajada ergashmagan, g‘azallariga tatabbu yozmagan, taxmis bog‘lamagan, shoirning “vor”, “ver”, “cho‘x”, “yo‘x”, “box”, “bing”, “etmaz”, “qilmaz”, “o‘lmaz”, “bengzatdim”, “dushti”, “etmazmidim”, “dagil”, “saqin”, “verar”, “dutmishlar”, “kerakmazmi sango”, “aylar bani” kabi ozarbayjoncha talaffuzdagi so‘z va iboralaridan foydalanib, g‘azallar bitmagan shoirni deyarli uchratmaymiz. Bu ta‘sirning izlarini biz Turdi va Mashrabdan tortib, Andalib, Vafoiy, Munis, Ogahiy, Roqim, Ravnaq, Mujrim-Obid, Uvaysiy, Mahzuna, Nodira, Amiriy, Gulxaniy, G‘oziy, Shavqiy, Asiriy, Ma‘dan, Hijlat, Xon, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Kulfat, Dilshod-Barno, Yusuf Saryomiy, Komil Xorazmiy, Muhayyir, Avaz kabi mumtoz, Hamza, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol singari zamonaviy shoirlargacha davom etib kelgani va davom etayotganini ko‘ramiz.

Mashhur ozar shoiri va mutafakkiri Fuzuliy ham Navoiy kabi Erkin Vohidovning ijodiy takomilida katta rol o‘ynagan so‘z san‘atkorlaridan hisoblanadi. U yoshligidanoq buyuk salafi she‘rlarini sevib o‘qigan, yod olgan, fuzuliyxonlik davrlarida ishtirok etgan. Tarjimai holida keltirishicha, huquqshunos tog‘asi Karim Sahiboyev oilasida taniqli shoir Chustiy. olim va tarjimon Alixonto‘ra Sog‘uniy, aka-uka hofiz Shojalilovlar kabi adabiyot shinavandalari ishtirokida adabiy gurunglar bo‘lib, ularda Xo‘ja Hofiz, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Mirzo Bedil she‘rlari o‘qilib muhokama qilingan. She‘riyat shaydosi Erkin Vohidov bunday nafis majlislarning doimiy ishtirokchisi edi [4,7–8]

Ana shunday nazm kechalarining birida Fuzuliyning quyidagi bayti o‘qiladi:

*Bu g‘amlarkim, manim vordur, bairing boshina qo‘ysang,*

*Chiqar kofir jahannamdan, kular ahli azob, o‘ynar [10,95].*

Sog‘uniy domla sharhiga hamma ojiz qolgan ayni baytning mag‘zini shunday chaqib beradi: Qur‘oni karimda keltirilishicha, kofir abadulabad jahannamda kuyadi. Qachonki tuya ignaning teshidan o‘tsa, o‘shandagina u do‘zax qa‘ridan chiqishi mumkin – bu degani hech qachon chiqmaydi. Shoir o‘z baytida ana shu voqeaga ishora qilib, “Mening shunday cho‘ng g‘amlarim borki, agar ularni tuyaning ustiga qo‘ysang, tuya qilday holga kelib, ignaning teshigidan lip etib o‘tib ketadi, kofir esa jahannamdan chiqib, shodu xurram bo‘ladi”, – deya mubolag‘a san‘atini haddi a‘losiga yetkazadi [1,188].

Yugoslaviyaning Struga shahrida bo‘lib o‘tgan jahon shoirlari mushoirasi kunlarida turk, ozar va o‘zbek shoirlari bir davra qurib, adabiyotdan bahs yuritadilar. Suhbat mavzui Fuzuliyga ko‘chganida shoir ustida talash boshlanib ketadi – ozar uni bizniki desa, turk bizni bizniki deydi. Fuzuliyxonlik boshlanib ketganida esa shoir she‘rlaridan hammadan ko‘p yod biladigan Erkin Vohidov har ikki qardoshini mot

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

qilib, Fuzuliyning o‘zbeklar foydasiga yutib oladi. “Fuzuliy aslida o‘zbek ekan-ku!” – deb olqishlaydi hayratda qolgan turk shoiri uni [5,315].

U Ozarbayjondagi fuzuliyxonlikda ham hammani qoyil qilib kelgan [8,79].

Fuzuliy ijodining bunchalik muxlisi ijodida uning ta’siri bo‘rtib ko‘rinmasligi mumkin emas. albatta.

“Hamdardlikni kuylagan g‘azal” maqolasida:

“Qardosh ozarbayjon xalqining otashnafas farzandi Muhammad Fuzuliy turkiy g‘azal uslubini kamolot cho‘qqisiga ko‘targan buyuk siymolardan biri sanaladi. Uning g‘azallari ravon va musiqiyli, o‘ynoqligi bilan, go‘zal tashbehlarga boyligi bilan ko‘ngillarni band etadi. Fuzuliy o‘zbek xalqi uchun ham sevimli va qadrlidir. Bizning ota–bobolarimiz Fuzuliy baytlarini ibtidoiy maktabdan yod olib, ko‘ngilga jo qilganlar. Layli va Majnunning o‘tli muhabbatiga mahliyo bo‘lganlar, bir qancha o‘tmish shoirlarimiz Fuzuliy ohangida o‘g‘uz lahjasida g‘azallar bitganlar” [7,102], – deb yozgan Erkin Vohidovning “Fuzuliy haykali qoshida” she’rida mana bunday o‘tli e’tiroflarni ko‘ramiz:

*Oshiqlar uxlaydi saharga tomon  
Fuzuliy devonin boshiga qo‘yib.  
Majnun sevgisidan o‘qilsa doston,  
Bulbullar kuylaydi butoqqa qo‘nib... [2,73]*

She’rda buyuk ozar shoirining uch mashhur g‘azalidan ikki baytdan va “Go‘zim, jonim, afandim, sevdigim, davlatli sultonim” murabbasidan bir band keltirib, shunday lutf qiladi:

*G‘azal ham bo‘lurmi shuncha dilrabo,  
Bunchalar serishva, bunchalar sernoz.  
Mening shoirligim yolg‘ondir, ammo,  
Fuzuliy she’riga oshiqligim rost [2,73].*

Bu she’rda Erkin Vohidovning Fuzuliy ijodini qanchalik sevishi va undan qanchalik xabardorligi yorqin aks etgan. Misol sifatida keltirilgan baytu misralar esa uning ayni g‘azal va murabbalarini sevib o‘qishidan dalolat beradi.

Erkin Vohidovning o‘z ijodida ham Fuzuliy ta’siri kuchli. G‘azal mehri ko‘ngliga Fuzuliy asarlari mutolaasi tufayli singgani haqida shunday yozadi:

*Fuzuliy devonin qo‘limga oldim,  
U soldi ko‘nglimga g‘azal mehrini... [2,360]*

Shoirning “Dilga o‘z dilbar so‘zini, jonon so‘zini jonga yoz” misrasi Fuzuliyning “Jonni jononaya etdim, dili dildora fido” misrasini yodga soladi.

*Bu jahonda, deydilar, har kimda bor bir o‘zga tab’,  
Menga – may, bulbulga – tong, gul bargida – shabnam shirin [2,155], –*

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

mazmunidagi bayti esa Fuzuliyning:

*Har kiming olamda miqdorinchadir tab'inda mayl,  
Man labi jononimi, Xizr obi hayvonin sevar [10,91], –*

bayti ta'sirida yozilgani ko'rinib turibdi. Yoki buyuk salafining:

*Oqibat rasvo o'lub, maytak tushar el og'zina,  
Kimki bir sarmast soqiy la'li xandonin sevar [10,91], –*

baytining ta'siri shoirning “uzum” radifli g'azalida shunday aks sado beradi:

*Kimki oshiqlikni da'vo aylasa, shuldir jazo,  
Oqibat xum ichra bo'ldi mahkumi zindon uzum.*

*Xum ichida necha yil xun bo'lmoq erkan qismati,  
Lablaringga yetdi oxir bir piyola qon uzum [2,149].*

Erkin Vohidovning:

*Ta'rifi ishq dardiga  
Etgin yurak qonin siyoh,  
Dilga yoz dilbar so'zin,  
Jonon so'zini jonga yoz [2,135].*

misralari esa buyuk salafining:

*Jonu dil qaydini chekmakdan o'zim qutqordim,  
Joni jononaya etdim, dili dildora fido [10,32], –*

bayti bilan hamohang ekanligi ko'rinib turibdi.

Erkin Vohidovning “Hijron qushlari” nomli g'azali Fuzuliyning:

*Go'shai abro'laringda chashmi jodularmidur?  
Yo'qsa kirmish yoya tiyrandoz hindularmidur?[10,123]*

bayti bilan boshlanadigan g'azaliga tatabbu ekanligi shubhasiz:

*Tarki yurt etgan xazon  
Faslidagi qushlarmikin?  
Yo qirov tushgan boshim  
Tashlab uchar hushlarmikin? [3,34]*

Lekin bu ta'sir qirralari shakl bilan bog'liq bo'lib, shoir vazn va ohangda buyuk salafiga ergashsa-da, mazmunan mutlaqo ohorli g'azal yaratgan.

Har ikki g'azal ham ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida yaratilgan. Tatabbuning qofiyasi boshqacha bo'lgani bilan ohang mushtarak. Bu g'azalning Fuzuliy g'azali ta'sirida bitilgan deyishimizga sabab xuddi shu.

Erkin Vohidov Fuzuliyning “etmazmidim” radifli mashhur g'azaliga taxmis ham bog'lagan. Bu muxammasda u salafi qalamga olgan mavzuni kengaytirish va

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

chuqurlashtirish, uning yangidan-yangi qirralarini ochishga muvaffaq bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, taxmis bir shoir g‘azalida o‘z ifodasini topgan fikru kechinmalar ikkinchi shoirning ko‘nglida aks sado berishi natijasida dunyoga keladi. Chunki u o‘sha g‘azalda o‘zining ham xayolidan kechib, bezovta qilib yurgan tuyg‘ular to‘lqiniga duch keladi-da. Natijada u qalbiga to‘qingan va uning qa’rida qatlanib yotgan so‘zlarini qo‘zg‘ab yuborgan ayni g‘azaldan ta’sirlanib, ilhomiga ilhom qo‘shilib, unga hamohang misralar bitadi va ikki shoirning bir mavzudagi fikru kechinmalari bir-birini rivojlantirib va to‘ldirib, bahonada yangi asar hosil bo‘ladi.

Odatda, zamonaviy shoirlarning mumtoz shoirlar g‘azallariga bog‘lagan taxmislarida g‘azal baytlari bilan ular qo‘shgan misralar suv yuzidagi yog‘dek bir-biridan ajralib turadi, chunki g‘azal aruzda bo‘lsa, unga bog‘langan taxmis barmoq vaznida bo‘ladi. Erkin Vohidov esa aruz bilimdoni va g‘azal ustasi bo‘lganligidan muxammaslari bog‘langan g‘azallar bilan chambarchas bog‘lanib, yalakat mag‘izga aylanadi. Chunonchi, sevgi savdosidan joni hikildog‘iga kelgan Fuzuliyning o‘z-o‘ziga kinoya va zaharxanda bilan bitgan “Agar menda aql bo‘lsa, yor ishqini tark etmasmidim, ixtiyor o‘zimda bo‘lsa, tinchimni ko‘zlamasmidim?” – mazmunidagi matlasini “Bularning barchasi mening yorga zoru giriftorligimdan, aks holda ohu zorni tark etib, sevgidan boshqa ish bilan shug‘ullanmasmidim, agar ishq telba qilmasa, o‘z ahvolimdan or etmasmidim” kabi misralari bilan to‘ldiradi va ular oshiqning aqlu ixtiyori yo‘qligi haqidagi fikrlar bilan o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketadi hamda g‘azal baytini nafaqat shakl, ayni paytda mazmun jihatidan ham boyituvchi band vujudga keladi:

*O‘lmasam zor anga, tarki ohu zor etmasmidim,  
Ishq koridan kechib, bir o‘zga kor etmasmidim,  
Gar junun yor o‘lmasa holimdan or etmasmidim,  
Aql yor o‘lsaydi tarki ishq yor etmasmidim.  
Ixtiyor o‘lsaydi rohat ixtiyor etmasmidim [2,204].*

Shu tariqa g‘azal baytlarining yangidan-yangi ma’no qirralarini ochib, ularni to‘ldira va boyita borgan Erkin Vohidov g‘azal maqtasini ham matlasi kabi nihoyatda go‘zal bir tarzda nihoyasiga yetkazadi:

*Ezdi hijronu malomat, javru kohish ko‘nglimi,  
Ovlamas dunyo ishiga zarra xohish ko‘nglimi,  
Ne qilay, Erkin, ikki o‘t ichra qolmish ko‘nglimi,  
Ey Fuzuliy, dog‘i hijron ila yonmish ko‘nglimi –  
Lolalar ochsaydi sayri lolazor etmasmidim [2,204].*

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Ishq dardi, hijron azobi, sog‘inch ishtiyog‘idan qonga to‘lgan oshiq ko‘nglini lolaga, dildagi ishq dog‘ini lola ichidagi qora tugunchaga tashbeh etish mumtoz she‘riyatda bir an‘ana tusini olgan. Shunga ishora qilib Fuzuliy agarda lolalar ochilsa, firoq dog‘ida o‘rtanib yotgan ko‘nglimni lolalar sayriga olib chiqib, bu ikki lolani o‘zaro uchrashtirib, bir-biriga hamdardu hamroz etmasmidim deb nozik lutf qiladi. Erkin Vohidov esa o‘zi tomonidan qo‘shilgan misralarda oshiq ko‘nglini shunday og‘ir va mushkul ahvoliga nimalar bois bo‘lganini ko‘rsatib beradi, ya‘ni oqibatning sabablariga e‘tibor qaratadi: yor firog‘iyu odamlar malomatiyu har turli jabru jafolar ostida ezilgan ko‘ngilni dunyo ishlari zarracha qiziqitirmay qo‘ygan, sevgi va dunyo otlig‘ ikki o‘t ichra qolgan bu dardisarni nima qilishni ham bilmayman. Natijada ko‘ngilni ochishning yagona yo‘li sifatida lolazor sayli tanlanadi. Zero, ayriliq hasratida yonib-o‘rtanib laxcha cho‘qqa aylangan va dog‘ paydo qilgan oshiq ko‘ngli bir lola bo‘lib, uni o‘z jinsiga – dashtu tog‘larda chaman bo‘lib ochilgan lolazorga qo‘shish istagi uyg‘onadi.

Erkin Vohidov o‘zining san‘atkorlik mahoratini ko‘rsatib ba‘zi baytlarga radifli taxmis ham bog‘laydi. Jumladan, g‘azalning uchinchi baytiga bog‘lagan taxmisining dastlabki ikki misrasida “ul” so‘zi takrorlanib, takror san‘atini hosil qilgan; “ruxi”, “dili”, “eli” so‘zlari asosida tarse‘ san‘ati vujudga kelgan; “bayzo” va “savdo”, “xoro” va “paydo” so‘zlari qo‘sh qofiya – zulqofiyatayn san‘atiga misol bo‘la oladi; “qil qiyos” jumlasini esa radif hisoblanadi:

*Ul ruxi bayzolingin savdolingimdan qil qiyos,  
Ul dili xorolingin shaydolingimdan qil qiyos,  
Zuhd eli taqvin mug‘a oshnolingimdan qil qiyos,  
Voizin kufrin banim rasvolingimdan qil qiyos,  
Anda sidq o‘lsaydi ban taqvo shior etmasmidim [2,204].*

Ma‘lum bo‘ladiki, Fuzuliy g‘azaliga mahorat bilan taxmis bog‘lash orqali Erkin Vohidov o‘zining muxammasnavislikda ham mohirligini ko‘rsatgan.

Erkin Vohidov buyuk so‘z san‘atkoriga bag‘ishlab “Fuzuliy haykali qoshida” nomli she‘rini yozadi. Bu uning Ozarbayjonga safari va shoir qabri ziyorati taassurotlari asosida yaratilgani ma‘lum. Bundan tashqari u qator she‘rlarida u yoki bu munosabat bilan Fuzuliyga, uning baytu misralariga murojaat qiladi, ularni she‘rlarida tazmin o‘laroq keltiradi. Jumladan, “Bog‘bon” she‘rida:

*Gohi Fuzuliydan g‘azallar o‘gir,  
Gohi shirin-shirin qilar askiya [2,219], –*

deb yozsa, “Kosmonavt va shoir” she‘rida agar men ko‘kka uchsam o‘zim bilan, jumladan,

*Hofizlarning tongda aytgan*

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

.....*munojotin,*  
*Navoiyning, Fuzuliyning she’rlarini*  
*Olar edim, olar edim men barini [2,56], –*

deb yozadi.

“Xazina” nomli g‘azalida yozadi:

*Fuzuliy Karbalo dashtin*  
*Quyundek kezdi Qays birlan,*  
*Dili hech topmadi taskin*  
*Davrning boda, bangidan [2,159].*

Erkin Vohidovning “Daraxtlar suhbat” she’ri Fuzuliyning “Suhbati asmor” (“Mevalar suhbat”) va Hamzaning “Mevalar mojarosi” munozaralaridan ulgi olgan.

U uzoq yillar O‘zbekiston televideniyesida “G‘azal oqshomi” ko‘rsatuvini olib borib, ko‘plab mumtoz shoirlar qatori Fuzuliy g‘azallarining ma’no qirralarini xalqqa yetkazishga o‘z hissasini qo‘shdi. Jumladan, “Hamdardlikni kuylagan g‘azal” nomli sharhida buyuk salafining mashhur “o‘landan so‘r” radifli g‘azalini shoirona sharhlaydi [7,102–104]. Bevosita g‘azal sharhiga kirishishdan avval Fuzuliyning xalqimiz o‘rtasida mashhurligining dalili sifatida ozar shoirining

*Gul g‘unchaligida xor ilandur,*  
*Ochilsa, bir o‘zga yor ilandur [9,110], –*

kabi keng tarqalgan baytlaridan bir necha misol keltirib o‘tadi.

“Fuzuliy bu g‘azalda insondagi olijanob xislat – hamdardlik tuyg‘usini tarannum etadi”, – deya uning matlasini shunday sharhlaydi:

*Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o‘landan so‘r,*  
*Zuloli zavq shavqin tashnai diydor o‘landan so‘r [117].*

“Dardmandga kim hamdard bo‘lishi mumkin? Faqat dardning azobini bilgan odam! Bir daqiqalik visolning dardmand oshiq qalbiga shifo bo‘lishini yolg‘iz hijron azobida bemor bo‘lgan odam biladi... Bu obi hayotdek jonbaxsh zavq qadrini tanho yor diydoriga tashnalik qiynog‘ini tortgan anglaydi” [7,103].

Lekin bu sharh dahriyona mafkura hukmron sho‘ro davrida yaratilgani uchun g‘azalning tasavvufiy mohiyati, sabo, xarobot, zohid, lab, jom, mast, hushyor, xumor kabi irfoniy istilohlar bag‘rida pinhon ma’nolar ochib berilmagan.

Erkin Vohidov qator maqolalarida Fuzuliyi ixlosu ehtirom bilan tilga oladi. u haqda munosabat bildiradi, baytu misralarini fikrining tasdig‘i sifatida keltiradi va ularning ma’nolarini tushuntirib beradi. Bu misollarning barchasi uning buyuk ozar shoirining otashin muxlisi ekanligiyu, uning ijodidan yaxshi xabardorligidan dalolat beradi. Jumladan, “She’r qadri” degan maqolasida she’riyatning go‘zal yolg‘onligiga dalil sifatida Fuzuliyning:

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

*Gar dursa Fuzuliyki, go‘zallarda vafu vor*

*Oldonmaki, shoir so‘zi, albatta yolondir* [9,47], –

baytini keltiradi va o‘z mulohazalarini shunday yakunlaydi:

“She‘riyatning ana shu “yolg‘onida” juda chuqur haqiqat, sehrli haqiqat bor, buyuk ishontirish kuchi bor. Aql bovar qilmas bir qonuniyatga ko‘ra, kishilar jo‘n aytilgan rost so‘zga emas, o‘sha “yolg‘on”ga ishonadi” [5,185].

Mirzo Kenjabek bilan qilgan “Shoir va she‘r dunyosi” nomli adabiy suhbatida esa “Adabiyotda yolg‘on deganda men badiiyat, majozni tushunaman”, – deya yana fikrining isboti sifatida Fuzuliyning ayni baytini keltiradi [5,200].

“Yangi asr ostonasidagi o‘ylar” maqolasida tiriklik mohiyati, inson umrining mazmuni borasida chuqur o‘ylarga botar ekan, shunday yozadi:

“Aslida dunyoga kelib yashashdan murod nima?

*Yo Rab, baloyi ishq ila qil oshno mani!*

*Bir dam baloyi ishqdan etma judo mani!* [9,57]

deya Ka‘baga bosh urib, Ollohdan o‘ziga ishq dardini tilagan Majnun, nazdimda, yashashning ma‘nosini eng teran anglagan kishi bo‘lib ko‘rinadi” [6,52].

“She‘riyat haqida suhbatlar” maqolasida she‘riyatning hozirgi ahvolidan kuyunib, “Bugungi she‘riyat himoyaga muhtoj bo‘lib qoldi. Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy ekib parvarish qilgan gulzorni chirmovuq va yantoq bosmasligi kerak”, – deb yozadi [6,198].

Shu suhbatda yana she‘r zavqi xususida fikr yuritar ekan, she‘rga shinavandalik boshqayu “mazoqi she‘r” butunlay boshqa narsa deya, Fuzuliyning ayni ma‘nodagi baytini keltirib o‘tadi:

*Mazoqi she‘r ham bir o‘zga olamdur, haqiqatda*

*Iki olam musaxxar aylamak g‘oyatda mushkildur* [10,351].

Shu suhbatda yana Fuzuliyning:

*Navbahor o‘lgach, tikandin bargi gul izhor o‘lur, –*

misrasini keltirib turib yozadi: “Iste‘dod oftobi tushgan yerda har qanday mavzu, har qanday uslub nurlanib ketadi” [6,204].

Taniqli navoiyshunos olimi Suyima G‘aniyeva yozgan ediki: “Erkin Vohidov haqida Navoiy darslarida alohida to‘xtalib o‘taman. Uning mumtoz she‘riyatga ixlosi, bilimi boshqalardan boshqacha. Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Bedil, Tagor va boshqa alloma shoirlar haqida yozganlari talabalarda ularda tavajjuh uyg‘otar edi” [11,276].

Ma‘lum bo‘ladiki, Fuzuliyning Erkin Vohidov ijodiga ta‘siri keng va serqirra bo‘lib, uni:



# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

- Erkin Vohidovning Fuzuliy ta’sirida bitgan g‘azallari;
- Erkin Vohidovning Fuzuliy g‘azaliga muxammasi;
- Erkin Vohidovning Fuzuliy haqidagi she’ri va turli she’rlaridagi Fuzuliy ta’rifidagi bandu misralari;
- Erkin Vohidovning adabiy va publitsistik maqolalaridagi Fuzuliy haqidagi fikrlari;
- Erkin Vohidovning adabiy va publitsistik maqolalaridagi Fuzuliy baytu misralaridan keltirgan iqtiboslari;
- Erkin Vohidovning Fuzuliy g‘azaliga sharhi kabi bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha teran tadqiq etish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boltaboyev H. Erkin aka davrasi \ To quyosh sochgayki nur (Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
2. Vohidov E. Saylanma (Ishq savdosi), 1-jild. – Toshkent: “Sharq”, 2000.
3. Vohidov E. Saylanma (Umr daryosi), 3-jild. – Toshkent: “Sharq”, 2001.
4. Vohidov E. Tarjimai holim \ To‘la asarlar to‘plami, 5-jild. – Toshkent: “Sharq”, 2018.
5. Vohidov E. To‘la asarlar to‘plami, 5-jild (Qalb sadoqati). – Toshkent: “Sharq”, 2018.
6. Vohidov E. To‘la asarlar to‘plami, 6-jild (Erk saodati). – Toshkent: “Sharq”, 2018.
7. Vohidov E. Shoiru she’ru shuur (Adabiy o‘ylar) . – Toshkent, 1987.
8. Muhammad N. Ezgulik saboqlari \ To quyosh sochgayki nur (Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
9. Muhammad Fuzuliy. Asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. Dostonlar (Ozarbayjonchadan nashrga tayyorlovchi: X.Rasul). – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
10. Fuzuliy. Qalb gavhari (Tuzuvchi va so‘zboshi muallifi: E.Ochilov). – Toshkent: “Hilol-nashr”, 2014.
11. G‘aniyeva S. Suhbatimiz tugamas edi \ To quyosh sochgayki nur (Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
12. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

13. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports, 1(1)*.
14. Rasulova, U. (2024). Insoniyat: asliyat va irsiyatning badiiy talqini. *Uzbekistan: yozıık i kultura, 1(1), 33-45*.